



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024-yil 24-iyun

256-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Qamashi tumani suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasiga Qamashi tumani “To‘qboy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi O‘ng qirg‘oq kanali “Suvchilar uyi” amalda foydalanib kelinayotgan yer uchastkasini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagи “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Qamashi tumani suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasining 2024-yil 9-apreldagi 3/16-son buyurtma xatini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

### **QAROR QILAMAN:**

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobjiy xulosasi, hududiy arxitektura shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobjiy xulosalari hamda kelishuvlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Qamashi tumani suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasiga Qamashi tumani “To‘qboy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi o‘ng qirg‘oq kanali suvchilar uyi amalda foydalanib kelinayotgan 0,50 hektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo'yicha tayyorlangan hujjatlar yig'majildi, vakolatli tashkilotlarningxulosalari va kelishuvi bo'yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib ma'lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquqni "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali ikki ish kuni davomida davlat ro'yxatidan o'tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va Qamashi tumani suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi bilan birgalikda ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko'ra bekor qilinishi belgilab qo'yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining [www.qashqadaryo.uz](http://www.qashqadaryo.uz) rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

8. Ushbu qaroring bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinnbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

**Viloyat hokimi**

**M.Azimov**

**Viloyat hokimi**



**M.Azimov**